

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA NON KONSEPTINING  
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

**Niyozova Mehribonu Furqat qizi**

*Buxoro davlat universiteti I bosqich tayanch doktoranti*

e-mail: [m.f.niyozova@buxdu.uz](mailto:m.f.niyozova@buxdu.uz)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada o'zbek paremiologik fondida uchraydigan non konseptining lingvomadaniy jihatlari ochib berilgan. Qolaversa, non so'zi uchraydigan maqollarni antroposentrik tahlil qilishda o'zbek milliy mentalitetida nonning ulug' ne'mat ekanligi sababidan ko'pgina maqollarda ramziy ma'no kasb etishi oydinlashgan.*

**Abstract.** *This article reveals the linguistic and cultural aspects of the concept of bread found in the Uzbek paremiological fund. In addition, an anthropocentric analysis of proverbs in which the word bread appears reveals that, due to the fact that bread is a great blessing in the Uzbek national mentality, it acquires a symbolic meaning in many proverbs.*

**Kalit so'zlar:** *til, madaniyat, lingvokulturologiya, kommunikativ jarayon, muqobilsiz leksika, tilning paremiologik birliklari, ramzlar, stereotiplar.*

**Key words:** *language, culture, linguoculturology, communicative process, alternative lexicon, paremiological units of language, symbols, stereotypes.*

Xalq ruhiyatini, dunyoqarashini, o'zligini, qadriyatlarini o'zida ifoda etuvchi maqollar tilimizda bisyor. Bunday birliklarni nutq jarayonida o'rinli qo'llash orqali kommunikatsiya jarayoni ifodali, mazmunli chiqadi. Bu esa so'zlovchi va tinglovchining bir-birini tez va oson tushunishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham maqollarga bo'lgan ehtiyoj qadimdan bo'lgan va xalq o'zining milliy mentalitetiga mos ravishda maqollar yarata boshlagan. Agar bunday maqollar boshqa xalq turmush tarziga, milliy ruhiga, ijtimoiy tarziga muvofiq kelsa, o'zlashtirilgan hamda vaqt o'tib o'sha xalqning "o'z maqoli"ga aylangan.

Maqollarning mavzu ko'lami kengligi tufayli har qanday gapga chechan so'zlovchi suhbat jarayonida paremiologik birliklarni qo'llay oladi. Bunday mavzuviy maqollarda non konsepti qatnashgan paremiologik birliklar o'ziga xos lingvomadaniy tahlilga ega. Non o'zbek dasturxonining aziz ne'matlaridandir. Chunki non har qanday ma'rakalarda, yig'inlarda, kundalik ovqatlanish paytlarida ham, albatta, non tortiladi. Shuning uchun xalqimiz tilida non bilan bog'liq turg'un birikmalar, shu jumladan maqollar talaygina. Maqollardagi non so'zshakli faqat un bilan suv qorishmasidan tayyorlangan xamirni tandirda pishirish jarayonidan hosil bo'lgan oziq-ovqat mahsuloti emas, balki rizq-ro'z, qut-baraka, hatto, insoniyat tomonidan tanovul etiladigan jamiiki mahsulotlarning umumlashgan ramziy ma'nosi bo'lib kela oladi. Masalan:

Ketmon chopdim – non tishladim.

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

### IV son, Mart

O'zbek xalqi mehnatsevar bo'lganligi uchun aynan bunday fazilatni ifodalovchi realiyalar tilimizda salmoqli. Lingvokulturologiya predmetlardan biri hisoblangan muqobilsiz leksika namunasi bo'lmish ketmon so'zi maqolning milliy ruhini yanada oshirgan. Chunki ketmon realiyasi orqali qadimdan ota-bobolarimiz dehqonchilik bilan shug'ullanganligi, halol yashash uchun og'ir yumushdan qochmasligi ifodalangan. Non tishladim birikmasi esa o'z ma'nosida emas, balki frazeologizm shaklida kelib, mehnat qilish orqali kishi daromad topib, ro'zg'orini jamiiki oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlay olishi va tanovul qilishiga ishora mavjud.

Sen ishni quvsang – non seni quvar.

Bunda non konsepti orqali inson mehnatdan qochmay tinmasdan harakat qilsa rizq-u nasibaning o'zi kelaverishi anglashiladi. Ushbu turg'un birlikda non so'zi rizq, baraka so'zlari o'rnida qo'llanilib ularning ramziy ifodasi bo'lib kelgan.

Mehnatli non – shakar

Mehnatsiz non – zahar

Shakar – lavlagi yoki shakarqamish o'simligidan olinadigan oq-sarg'ish rangli qumsimon shirinlik. [5.536] Shuning uchun ham uni totli, mazali so'zlari o'rnida ko'chma ma'noda qo'llash o'zbek tili egalari uchun odatiy tusga aylangan. Zahar – tirik mavjudotni og'ulab yemiruvchi va o'ldiruvchi modda, og'u bo'lib u turli o'rinlarda ko'chma ma'noda og'u singari achchiq, kishi hayotini og'ulaydigan, azobga aylantiradigan narsa, holat ma'nolarida qo'llaniladi. [4.142]

Ushbu barqaror birikmada mehnat qilib topilgan daromaddan olingan har qanday boylikning ramziy ifodasi bo'lib kelgan non shakardek totli ekanligi oydinlashsa, turli firibgarlik yo'li bilan ottirilgan boylikning ramziy ifodasi bo'lib kelgan nonning egasiga ozor berishi, hech qanday nafi yo'qligini anglatmoqda.

Mehnatning noni Shirin

Yalqovning joni Shirin

Bilamizki, ota-bobolarimiz qadimdan mehnatsevarlikni ulug'lashgan. Mashaqqat chekib topilgan har qanday moddiy yoki ma'naviy boylik totli tuyiladi. Maqoldagi non so'zi mehnat qilib erishilgan boyliklarning ko'chma ma'noda ifodalangan ko'rinishidir. Dangasalar esa mehnat qilib baraka topishdan ko'ra o'zlarini asrab mehnatdan qochishadi.

Mehnatning noni mazali

O'g'ining umri azali

Ushbu maqolda non mashaqqat chekib halol yo'l bilan topilgan rizq kulturemasi bo'lib kelgan. Ya'ni har qanday mehnat ortidan keladigan rizq-u nasiba kishiga lazzatli taom kabi huzur baxsh etishiga, qing'ir yo'l bilan umr guzaronlik qiluvchilarning hayoti ham a'za kabi o'tishiga ishora mavjud. Ushbu maqol yuqoridagi maqolning variantdoshi desak ham bo'ladi.

Yuqoridagi maqollarning bosh g'oyasi mehnatsevarlikni ulug'lash va undan insonga tegadigan manfaati, qut-barakasi, foydasi, lazzati nonga qiyoslangan. Mehnatsevarlikni muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan emotsional bo'yoqdor va

favqulodda barqaror bo'lgan obrazli, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligini anglatuvchi, o'zbek xalqiga xos stereotiplardan biri desak bo'ladi.

O'gay ota non bermas

Non bersa ham jon bermas.

O'gay – oldingi er yoki xotindan bo'lgan farzandlar hozirgi er va xotinga, ularning qarindoshlariga nisbatan, shuningdek, hozirgi er yoki xotin ularning qarindoshlari oldingi er va xotindan bo'lgan bolalarga nisbatan. O'gay ona, o'gay nabira, o'gay xola. [4.445]

O'gay so'zining paydo bo'lishi xalqimiz milliy mentalitetidan kelib chiqadi.

Masalan, rus xalqida erkak kishining ayol xonadoniga borib yashashi oddiy, odatiy hol, o'zbek mentaliteti uchun esa bu holat mutlaqo yot bo'lib kelgan. Shu boisdan ham bizning tilimizda uchraydigan o'gay so'zi etimologiyasidagi “qo'shilmoq”, qo'shib kelmoq ma'nolari, ya'ni o'gaylik, asosan, ayol kishining erkak kishinikiga kelishi, ba'zan farzand (yetaklab) qo'shib kelishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. [ 1.69 ]

Maqoldagi o'gay semasi salbiy ottenka ifodalovchi birliklardan biri bo'lganligi uchun yuqoridagi maqolda ham ushbu xususiyatni ifoda eta olgan. Maqolda o'gay ota o'ziga begona deb biluvchi farzandini moddiy jihatdan ta'minlashi mushkul ekanligi, uning ehtiyojlarini qondirgan taqdirda ham o'z farzandi kabi ko'rmasligi, o'gay farzandi uchun barcha narsaga tayyor emasligi ifodalangan. Ushbu maqolni oilasi buzilish arafasida turgan ota-onalarga qarata aytilgan desak bo'ladi. O'zbek qadriyatlarida oila muqaddas dargoh ekanligi, ota-onalarning farzandiga mehrlili bo'lishi va g'amxo'rlik qilishi o'zbek qadriyatlarida qadimdan mavjud. Turg'un birikma tarkibidagi non so'zi kishi ehtiyojlarini qondiradigan moddiy va ma'naviy boylikning ramziy ifodasi bo'lib kelgan.

Shunday qilib o'zbek xalq maqollaridagi non konsepti asosan rizq, nasiba, boylik, qut-baraka so'zlarining ramziy ifodasi bo'lib keladi. Maqollar turli maqsadlarda, jumladan, ayni bir maqol kesatish, yupatish, o'git berish, maslahat berish, saboq berish, ogohlantirish va hokazo qo'llanishi mumkin. Bu, albatta, kontekst yoki nutqiy akt jarayonida oydinlashadi. O'zbek paremiologik fondida non konsepti bilan bog'liq maqollarning ko'pligi boisini xalqimiz madaniyati, tarixi, turmushi, ma'naviyati bilan non predmeti chambarchas bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Акбарова З. Олам лисоний манзарасининг шаклланишида когнитив ўзига хослик. Филол. Фанлари доктори...диссер...автореф. Фарғона, 2021. – 69 б.
2. Махмараимова Ш. Лингвокултурология. – Т.:Чўлпон, 2017. – 164 б
3. Усманова Ш. Лингвокултурология. – Т. 2019. 245 б.
4. [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том.– Тошкент.: ЎЗМЭ, 2004. – 142-б.]
5. [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-том.– Тошкент.: ЎЗМЭ, 2004. – 445-536 б.]
6. <https://myfarzand.uz/maqollar-non.html>